

E. SARIQOV, B. HAYDAROV,  
Sh. SARIQOV, K. ALLAMJONOV



# SOLIQQA TORTISH ASOSLARI

*Umumta'lim maktablarining  
9-sinfi uchun o'quv qo'llanma*



*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
umumta'lim maktablari uchun o'quv qo'llanma sifatida  
tavsiya etgan*

МАЖБУРИЙ  
НУСХАЛАР

TOSHKENT  
"YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE"  
2008

*Davlat Soliq qo'mitasi raisining  
birinchi o'rinbosari E. Gadoyev umumiy tahriri ostida*

**Taqrizchilar:** F. Mirzayev, Davlat Soliq qo'mitasi, boshqarma boshlig'i;  
N. Xo'jayev, iqtisod fanlari doktori, professor;  
X. Xotamova, Respublika ta'lim markazi, iqtisodiy ta'lim  
sektori boshlig'i.

HO 34853  
091

Ushbu kitob soliq va soliq to'lovlariga oid bilimlarni "Iqtisodiy bilim asoslari" fani va boshqa fanlar tarkibida o'rganishni osonlashtirish maqsadida yaratilgan. Ushbu kitobdan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi moddalarini hamda soliq va soliq to'lovlariga oid boshqa materiallar joy olgan. Kitobdan "Iqtisodiy bilim asoslari" darsligi va boshqa darsliklarga qo'shimcha o'quv qo'llanma sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Undagi materiallarning istalganini alohida ajratib, muayyan fan bo'yicha darslarda foydalanish mumkin.

### SHARTLI BELGILAR:



O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi moddasidan



— Qiziqarli material



— Tarixga nazar



— Amaliy vaziyat tahlili



— Faollashtiruvchi savollar



— Yodingizda saqlang!



— Mavzuga oid savol va topshiriqlar

65.261.4  
S77

2008/12  
AG361  
Alisher Navoiy  
nomidagi  
O'zbekiston Mh

**Soliqqa tortish asoslari:** Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun o'quv qol./ E. S. Sariqov, B. Haydarov, Sh. Sariqov, K. Allamjonov; E. Gadoyevning umumiy tahriri ostida. — Toshkent: Yangiyul poligraph service, 2008. — 48 b.: rasm.

I. Sariqov, E. S. va boshq.

BBK 65.261.4я7

ISBN 978-9943-309-88-3

© "Yangiyul poligraph service", 2008

© E. Sariqov, 2008

## MUNDARIJA

<b>I. DAROMAD SOLIG'I</b> .....	4
1.1. Jismoniy shaxslar daromad solig'i.....	4
1.2. Soliq stavkalari.....	5
1.3. Soliqdan imtiyozlar.....	6
<b>II. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD(FOYDA) SOLIG'I</b> .....	8
2.1. Soliqqa tortiladigan daromad .....	8
2.2. Soliq stavkalari.....	10
2.3. Soliqdan imtiyozlar.....	11
<b>III. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN MOL-MULK SOLIG'I</b> .....	12
3.1. Soliq obyekt. Soliq stavkasi.....	12
3.2. Soliqni hisoblash va to'lash. Soliqdan imtiyozlar.....	14
<b>IV. YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN MOL-MULK SOLIG'I</b> .....	17
4.1. Soliq solish obyekt.....	17
4.2. Soliq stavkasi va soliqdan imtiyozlar.....	19
<b>V. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I</b> .....	20
5.1. Soliq obyekt va stavkalari.....	20
5.2. Yer solig'ini to'lash va undan imtiyozlar .....	23
<b>VI. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I</b> .....	25
6.1. Soliq obyekt va to'lovlari.....	25
6.2. Yer solig'i stavkalari va imtiyozlari .....	28
6.3. Yagona yer solig'i .....	30
6.4. Yagona yer solig'i stavkalari va uni hisoblash.....	32
<b>VII. YAGONA SOLIQ TO'LOVI</b> .....	34
<b>VIII. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I</b> .....	36
<b>IX. AKSIZ SOLIG'I</b> .....	38
<b>X. YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ</b> .....	40
<b>XI. IJTIMOYIY JAMG'ARMALARGA MAJBURIY TO'LOVLAR</b> .....	42
11.1. Yagona ijtimoiy to'lov va pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar.....	42
11.2. Respublika yo'l jamg'armasi.....	45
11.3. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi.....	46



## DAROMAD SOLIG'I

### 1.1. Jismoniy shaxslar daromad solig'i

Har qanday jismoniy shaxs o'z daromadlaridan soliq to'lashi shart. Bunda soliqqa tortiladigan daromad ikkiga — rezident va norezidentlar daromadlariga bo'linadi.

Rezident mamlakatimizda va undan tashqarida olgan daromadlaridan soliq to'lashi kerak bo'ladi.

Jismoniy shaxslarning **jami yillik daromadi soliq solish obyekti** hisoblanadi. Soliqqa tortiladigan daromad deganda, jismoniy shaxslarning jami daromadidan belgilangan chegirmalarni ayirib tashlagandan keyingi qoldiq summa hisoblanadi.

Jismoniy shaxs jami yillik daromadiga quyidagilar kiradi:

- mehnat haqi tariqasida olingan daromadlar;
- jismoniy shaxsning mulkiy daromatlari;
- jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromatlari.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga olingan foizlari, aksiyadan dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar kiradi. Jismoniy shaxslarning qonunda ruxsat etilgan tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromatlari ham yuqorida aytilganidek jami daromadlar tarkibiga kiradi.



1. Qanday jismoniy shaxslar daromad solig'ini to'laydilar?
2. Rezidentlar va norezidentlar daromad solig'ini qanday to'laydilar?
3. Jismoniy shaxslarning jami daromatlari tarkibiga nimalar kiradi?
4. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromatlari nimalardan iborat?
5. Tadbirkorlikdan olingan daromatlari-chi?

## 1.2. Soliq stavkalari

Mamlakatimiz Soliq kodeksida jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari quyidagicha guruhlariga ajratilgan:

- ish haqi, mukofotlar va shunga o'xshash daromadlarga solinuvchi;
- dividendlar va foizlar kabi daromadlarga solinuvchi;
- norezident shaxslarning daromadlariga solinuvchi soliq stavkalari;
- imtiyozli soliq stavkalari.

Quyidagi jadvalda jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari keltirilgan:

Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkasi
Eng kam ish haqining olti baravarigacha miqdorda	Daromad summasining 13 foizi
Eng kam ish haqining olti baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	Olti baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining olti baravaridan oshadigan summadan 18 foiz
Eng kam ish haqining o'n baravari (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda	O'n baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining o'n baravaridan oshadigan summadan 25 foiz

Jismoniy shaxslar aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlardan oladigan dividendlaridan 10 foizlik stavkada soliq undiriladi. Shuningdek, omonat foizlari va korxonaning ustav sarmoyasidagi unumli ishtirokidan keladigan daromadlar ham huddi shunday 10 foizli stavkada soliqqa tortiladi.

Yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadidan qat'iy belgilangan soliq to'lanadi. Ya'ni bunday tadbirkorlar o'z faoliyatlaridan qanchalik daromad olishlaridan qat'i nazar belgilangan miqdorda daromad solig'i to'laydilar. Ushbu yakka tadbirkorlar hokimiyat idoralari tomonidan mahsus ruhsatnoma — patent asosida ish olib boradilar.



1. Jismoniy shaxslarning qanday daromadlaridan daromad solig'i undiriladi?
2. Jismoniy shaxslarning dividendlari va foizlar ko'rinishida olgan daromadlaridan qanday stavkada soliq to'lanadi?
3. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan to'laydigan daromad solig'ining stavkalarini sharhlab bering.

### 1.3. Soliqdan imtiyozlar

Jismoniy shaxslarning daromad solig'iga imtiyozlar uch xil bo'ladi:

- soliqqa tortilmaydigan daromadlar;
- soliqdan to'liq ozod bo'ladigan jismoniy shaxslar;
- har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida imtiyozga ega bo'lgan jismoniy shaxslar.

Soliq qonunchiligiga ko'ra jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari quyidagilardan iborat:

- mehnat shartnomasi bekor qilinganda to'lanadigan, eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasidagi ishdan bo'shatish nafaqasi, davlat ijtimoiy sug'urtasi va davlat ijtimoiy ta'minoti bo'yicha nafaqalar, ishsizlik nafaqalari, homiladorlik va tug'ish nafaqalari;
- olinadigan alimentlar;
- oliy o'quv yurtlari va o'rta maxsus hamda hunar-texnika o'quv yurtlari stipendiyalari;
- davlat pensiyalari, shuningdek, ularga ustamalar;
- jismoniy shaxslarning xususiy mulk huquqi asosida o'zlariga qarashli bo'lgan mol-mulkni sotish natijasida oladigan mablag'lari.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqdan quyidagilar to'laligicha ozod bo'ladilar:

- Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulotda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy havfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari va bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga mansub shaxslar;
- Gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar gastrol-konsert faoliyatidan olingan daromadlari bo'yicha.



1. Jismoniy shaxslar uchun daromad solig'i bo'yicha necha xil imtiyozlar mavjud? Ular qanday imtiyozlar?
2. Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlariga nimalar kiradi?
3. Qanday jismoniy shaxslar daromad solig'idan ozod bo'ladilar?

Rasmlar asosida savollarga javob bering:



1. Rasmlardagi jismoniy shaxslarning qaysilari daromad solig'i to'lovchilari bo'la oladi?
2. Ularning qanday daromadlariga soliq solinmaydi?
3. Ular o'z daromadlaridan qanday stavkalarda soliq to'laydilar?
4. Rasmdagi jismoniy shaxslarning qaysilari daromad solig'i to'lashdan ozod qilinganlar?



## YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD(FOYDA) SOLIG'I

### 2.1. Solliqqa tortiladigan daromad



*"Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizam O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 1999- yil 5- fevraldagi 54- son qarori bilan tasdiqlangan.*



*O'zbekiston Respublikasining rezidentlari deb O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatdan o'tgan hamda bosh korxonasi O'zbekistonda joylashib, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar hisoblanadilar.*

Jismoniy shaxslar kabi yuridik shaxslar ham **daromad**, ya'ni **foyda solig'ini** to'laydilar. Soliq solinadigan daromadlar tarkibi "Mahsulot(ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tarkibi to'g'risida"gi nizam asosida aniqlanadi.

Huddi jismoniy shaxslarda bo'lgani kabi, yuridik shaxslar ham rezident va norezidentlarga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekistondagi va undan tashqaridagi faoliyatdan olgan manbalari-dan daromad(foyda) solig'iga tortiladilar.



O'zbekiston Respublikasining norezidentlari esa faqat O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatishdan olgan daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladilar.

Demak, O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezidentlarning foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining obyektidir.

Yuridik shaxslarning daromad(foйда) solig'i bo'yicha soliqni to'liq, to'g'ri aniqlash(hisoblash) uchun ularning jami daromadlari tarkibiga nimalar kirishini bilish zarur bo'ladi.

Jami daromadlar nimalardan iborat bo'lishi va ulardan chegirib tashlanadigan xarajatlar haqida keyingi mavzudan bilib olasiz.



*Soliq kodeksining 20-moddasiga muvofiq norezidentning O'zbekistondagi doimiy muassasasi deganda, u O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan joy tushuniladi.*



#### 129-moddasidan

Jami daromadlarga quyidagilar kiradi:

- tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan(sotishdan) olingan daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Jami daromaddan chegirmalar mavjud va ular soliqqa tortiladigan daromaddan chegiriladi.

Yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlarini aniqlash uchun yuqorida ko'rsatilgan Nizom bo'yicha ularning jami daromadlaridan jami xarajatlarini (chegirmalarini) chiqarib tashlab shu Nizomda belgilangan daromadga qayta qo'shiladigan xarajatlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.



1. Yuridik shaxslar uchun soliq soluvchi daromadlar tarkibi qaysi hujjat asosida aniqlanadi?
2. Rezident va norezidentlar kimlar?
3. Rezidentlar uchun soliq obyektini bo'lib nima xizmat qiladi?
4. Norezidentlarning soliq obyektini nimalardan iborat?


## 2.2. Soliq stavkalari

Yuridik shaxslarning daromad(foyda) solig'i stavkalari har yili Vazirlar Mahkamasining yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi qarori bilan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan daromad(foyda) solig'i stavkasi 1998- yilda 36 foizni tashkil etgani holda 2001- yilda 26 foizga tushgan. 2002- yilga esa 24 foiz, 2003- yildan boshlab 20 foiz, 2004- yil 18 foiz, 2005- yil 15 foiz, 2006- yil 12 foiz, 2007- yil 10 foiz qilib belgilangan.

Norezident soliq to'lovchining daromadini chet elga o'tkazilayotganda daromadidan(foydasidan) 10 foiz miqdorida soliq undiriladi.


Yuridik shaxslarga to'lanadigan dividendlar va foizlar 10 foizli stavka bilan soliqqa tortiladi.



Eramizdan avvalgi IV – III asrlarda bitilgan va Hindiston iqtisodiy dunyoqarashini ifoda etgan "Arxashastra" asarida bayon etilgan soliqlar, xususan, daromad solig'i haqidagi g'oyalar juda ham qiziqarlidir.

O'sha davr ruhiga mos ravishda, asarda savdo haqida, savdo bilan shug'ullanishning zarurligi haqida, bu soha hazinani boylik bilan to'ldiruvchi manba ekanligi, tovar baholarining qanday bo'lishi, savdo foydasi, savdoni tashkil qilish va uni nazorat etish haqida fikrlar bayon etilgan. Soliqlar haqida yozilishicha, o'lchov bilan sotiladigan tovarlardan tushadigan daromadning 1/16 hissasi miqdorida, tarozida tortilib sotiladigan tovarlar daromadining 1/11 hissasi soliqqa tortilishi ko'zda tutilgan.

Asarda xorij (chet)dan keltirilib sotilayotgan tovarlardan olingan daromadlardan soliq olinmasligi, mahalliy savdogarlarning chet el savdogarlari bilan hamkorlik qilishlariga keng yo'l berilishi bayon etilgan.

- 
1. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i stavkalari qanday belgilanadi?
  2. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) stavkasi qanchaga teng?
  3. Norezident qanday stavka bo'yicha soliqqa tortiladi?

### 2.3. Soliqdan imtiyozlar

Soliq kodeksiga ko'ra daromad(foyda) solig'idan beriladigan imtiyozlarni 3 guruhga bo'lib ko'rsatish mumkin:

- soliqdan to'liq ozod etiladigan yuridik shaxslar va ularning daromadlari;
  - soliqdan vaqtincha ozod etiladigan yuridik shaxslar va ularning daromadlari;
  - yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlarining kamaytirilishi.
- Qonunchilikda daromad (foyda) solig'idan bir qator yuridik shaxslar vaqtincha ozod qilinishi ham ko'zda tutilgan.

Yangi tuzilgan yuridik shaxslar ro'yxatdan o'tgan kundan e'tiboran birinchi yili 25%, ikkinchi yili 50% belgilangan stavkadan kamaytirilgan soliq to'laydilar. Keyingi yillarda esa belgilangan stavkada soliq to'laydilar.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006- yil 17 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida 2006 – 2010- yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 325-son qarorida muayyan turdagi xizmatlarni ko'rsatayotgan yuridik shaxslar uch yil muddatga daromad (foyda) solig'i va yagona soliq to'lovi to'lashdan ozod etilishi ko'rsatib o'tilgan. Bugungi kunda Zangiota tumanida 9 ta korxon va tashkilot Prezidentimizning PQ – 325-son qarorida belgilangan imtiyozlardan unumli foydalanib kelayotirlar. Jami ishchilari soni yuz nafardan oshadigan mazkur xo'jalik obyektlari o'zlariga yaratilgan soliq imtiyozi tufayli 18,3 mln so'mlik mablag'ni o'z ixtiyorlarida qoldirib, ulardan maqsadli va aniq yo'naltirilgan holda foydalanmoqdalar.

*Manba: Soliq va bojxona xabarlari, N29, 25.07.2008 y.*

- Yuqorida sanab o'tilgan imtiyozlar qaysi guruhga mansub?
- Soliq to'lovchilarga berilayotgan imtiyozlar qanday maqsadlarni ko'zlaydi?
- Ushbu imtiyozlarning natijasi nimalarda namoyon bo'lmoqda?



1. Daromad(foyda) solig'idan beriladigan imtiyozlar qanday guruhlariga bo'linadi?
2. Yangi tuzilgan yuridik shaxslar uchun qanday soliq imtiyozlari nazarda tutilgan?
4. Soliq solinadigan daromad(foyda) qanday miqdorda kamaytirilishi mumkin?



## JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN MOL-MULK SOLIG'I

### 3.1. Soliq obykti. Soliq stavkasi

Har qanday odam, ya'ni **jismoniy shaxsning** ma'lum miqdorda mol-mulki bo'ladi. Qonunga ko'ra u o'sha mol-mulkdan soliq to'lashi lozim bo'lsa, u holda o'sha odam **mol-mulk solig'ini to'lovchisi** hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulki esa, **soliq obykti** bo'ladi. Demak, soliq nimadan undirilsa, o'sha narsa **soliq solish obykti** deb ataladi.



#### 273-moddasidan

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish obyektidir.



Demak, Soliq kodeksiga ko'ra soliq obykti quyidagilardan iborat: jismoniy shaxslarning uy-joylari, kvartiralar, chorbog' va bog' uylar, garajlar va boshqa imoratlar, binolar va inshootlar qiymati (inventar qiymati).

Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ining 2008- yilgi stavkasi quyidagi jadvalda berilgan:

Solliq solinadigan obyektlarning nomi	Mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan solliq stavkasi
Turar joylar, kvartiralar, dala hovli, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	0,5

Mulkida solliq solinadigan mol-mulk bo'lgan pensionerlar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha solliq solinmaydigan eng kam miqdor uy-joy umumiy maydonining 60 kv. metri hajmida belgilanadi.



Yaqinda Odil aka o'z avtomobili uchun garaj sotib oldi. Garajning narxlangan qiymati 570000 so'mni tashkil etdi. Odil aka qancha mol-mulk solig'ini to'lashi lozim?



1. Jismoniy shaxslarning qanday mol-mulkleri solliq obyekti bo'la oladi?
2. Mol-mulkning qiymati kim tomonidan baholanadi?
3. Solliq stavkasi qanday mol-mulk uchun 0,5 foizni tashkil etadi?
4. Mol-mulk solig'i obyekti nimalardan iborat bo'lishi mumkin?

### 3.2. Soliqni hisoblash va to'lash. Soliqdan imtiyozlar

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinuvchi soliq davlat soliq idoralari tomonidan hisoblanadi. Imorat, bino va inshootlardan to'lanadigan soliqlarning miqdori ularning har yil 1-yanvardagi qiymatiga asosan belgilanadi.



Soliq inspektori va soliq to'lovchi soliq idorasida.

Imorat, binolar va inshootlarning egasi bir nechta bo'lsa, ulardan to'lanadigan soliq miqdori har bir odamning ulushiga qarab belgilanadi. Yangi qurilgan yoki sotib olingan binolarga soliq kelgusi yil boshidan boshlab hisoblanadi.

Mol-mulk yo'q qilingan, butunlay vayron bo'lgan hollarda mol-mulk solig'ini to'lash ular yo'q qilingan yoki butunlay vayron bo'lgan oydan boshlab to'xtatiladi.

Meros bo'lib qolgan mol-mulk solig'i, meros olingan paytdan boshlab to'lanadi. Agar mulkning egasi almasha, uning oldingi egasi joriy yilning 1-yanvaridan boshlab egalik huquqi yo'qolgan paytgacha (oygacha) soliqni to'laydi. Mulkning yangi egasi esa egalik huquqini olgan oydan boshlab to'laydi.



Salima opaning Qo'qon shahar yaqinidagi Yoyilma qishlog'idagi hovlisining qiymati TIB hodimlari tomonidan 2006-yil noyabr oyida 1850000 so'm deya belgilandi. 2007-yilning 17-avgust kuni Salima opa hovlini qo'shnisi Ravshan akaga sotib yubordi.

2008-yil Salima opa va Ravshan aka qancha soliq to'laganlarini aniqlang.

Agar mulk egasi soliq to'lashda ayrim imtiyozlarga ega bo'lish huquqini qo'lga kiritisa, mol-mulk solig'i o'sha huquq vujudga kelgan oydan boshlab qayta hisoblanadi.

Mol-mulk solig'ini to'lash haqida to'lov habarnomalari davlat soliq idoralari tomonidan to'lovchilarga har yili 1-maydan kechiktirmay topshiriladi.

Yillik umumiy soliq miqdori teng ulushlarda ikki marta: 15-iyun va 15-dekabrda kechiktirmay to'lanishi lozim.

Soliq qonunchiligiga ko'ra quyidagi jismoniy shaxslarning imorat, bino va inshootlariga soliq solinmaydi.

- O'zbekiston Qahramoni, Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, Shuhrat ordenining uchta darajasi bilan taqdirlangan shaxslar;
- Qahramon onalar, shuningdek, o'n nafar va undan ortiq farzandi bor ayollar;
- Pensionerlar, shuningdek, 1- va 2-guruh nogironlari;
- Muddatli harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari xizmatni o'tash davrida;
- Soliq kodeksida nazarda tutilgan boshqa shaxslar.

Yuqorida nazarda tutilgan imtiyozlar mol-mulk egasining tanloviga qarab, mol-mulklarining har bir turi bo'yicha faqat bir obyektga taalluqli bo'ladi.



1. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini kim va nima asosida hisoblaydi?
2. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini to'lash muddatlari qanday?
3. Merosxo'rlar mol-mulk solig'ini qachondan boshlab to'laydilar?
4. Yangi qurilgan yoki bir necha odam egalik qiladigan binolar solig'i qanday va qachon to'lanadi?
5. Mol-mulk solig'idan kimlar ozod etiladi?
6. Mol-mulk solig'idan imtiyozlar nima uchun kerak deb o'ylaysiz?

Rasmlar asosida savollarga javob bering:



1. Rasmlar ichidan mol-mulk solig'i obyekt bo'la olmaydigan mulklar rasmlarini ajratib ko'rsating? Nima sababdan bunday tanlaganingizni tushuntirib berishga harakat qiling.
2. Bino yoki inshoot mulk obyekt bo'lishi uchun o'z egasiga daromad keltirishi shartmi? Bu haqda mulohaza yuring. O'z fikringizni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.





## YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN MOL-MULK SOLIG'I

### 4.1 Soliq solish obyekti

O'z mulkiga ega bo'lgan yuridik shaxslar, **yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'**ining to'lovchilari hisoblanadilar.

**Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i obyekti** quydagilardan iborat:

- asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib sotib olingan yerning qiymati bundan mustasno);
- nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati;
- berilgan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektining o'rtacha yillik qiymati;
- me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

Korxonalar mulklarining yillik o'rtacha qiymati yil boshi va oxiridagi qiymatlarining yarmi yil ichida har bir oyning boshidagi qiymatlarni qo'shib, 12 ga bo'lish bilan aniqlanadi.

$$\text{O'rtacha yillik qiymat} = \frac{1 \text{ yan.} + 1 \text{ fev.} + 1 \text{ mart.} \dots 1 \text{ yanvar}}{2} \quad \frac{1 \text{ yanvar}}{2}$$

Bunda, korxonada mulki o'yning birinchi yarmida ishga tushirilsa o'sha oy o'rtacha yillik mulk qiymati belgilanayotganda to'liq oy deb qabul qilinadi.



Korxonada asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan soliq to'laydi.

Agar o'yning ikkinchi yarmida bo'lsa, uning qiymati keyingi o'yning boshida bo'lgan boshqa mulk qiymatiga qo'shilib o'rtacha yillik qiymati aniqlanadi.



“Omad” firmasi mulklarining qiymati yil davomida quyidagicha bo'lgan:

O'tgan yil:

1- yanvar — 28 500 000 so'm,	1- iyul — 28 300 000 so'm,
1- fevral — 25 280 000 so'm,	1- avgust — 27 500 000 so'm,
1- mart — 23 950 000 so'm,	1- sentabr — 27 200 000 so'm,
1- aprel — 22 320 000 so'm,	1- oktabr — 26 750 000 so'm,
1- may — 21 550 000 so'm,	1- noyabr — 26 220 000 so'm,
1- iyun — 29 500 000 so'm,	1- dekabr — 25 840 000 so'm.

Joriy yil: 1- yanvar — 25 450 000 so'm.

- Firma mulklarining yillik o'rtacha qiymatini hisoblang.
- Firma mulklari qiymatlarining yil davomida o'zgarish sabablari nimada deb o'ylaysiz?



1. Mol-mulk solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar kimlar?
2. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i obyektini nimalardan iborat?
3. Korxonada mulkining o'rtacha yillik qiymati qanday hisoblanadi?

## 4.2. Soliq stavkasi va soliقدan imtiyozlar

Yuridik shaxslar mol-mulk solig'ining stavkasi 2008- yilda — 3.5% miqdorida belgilangan.

Ushbu soliq stavkasi korxonalar mulkining qayta baholangan qoldiq qiymatidan undiriladi. Bu yerda korxonalar mulki deganda quyidagilar tushuniladi: 1. Asosiy vositalar; 2. O'rnatiladigan uskunalar; 3. Qurilishi tugallanmagan inshootlar; 4. Uzoq muddatga ijaraga olinadigan asosiy vositalar.




Rasmlarda "Tola" aksiyadorlik jamiyatiga tegishli bo'lgan mulklar tasvirlangan.

- Ularning qaysilaridan mulk solig'i undiriladi?
- Mulk solig'i stavkasi qancha?



1. Yuridik shaxslar mol-mulki stavkasi qanday miqdorni tashkil etadi?
2. Soliq stavkasi korxonalar mulkining qanday qiymatiga nisbatan belgilanadi?
3. Korxonalar mulki deganda nimalar tushuniladi?



## JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I

### 5.1. Soliq obyeksi va stavkalari

O'zbekiston soliq qonunchiligida yerlar **o'z mulkida, egaligida** yoki **foydalanishda** degan tushunchalar mavjud. Amaliyotda esa jismoniy shaxslarning yerlari, tomorqa yerlari va qo'shimcha, tashqaridan olingan yerlarga bo'linadi.

O'z mulki egaligida va foydalanishda yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar **yer solig'i to'lovchilari** bo'lib hisoblanadilar.

Jismoniy shaxslar uchun **soliq solish obyeksi** – **yer maydoni** hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning quyidagi yer maydonlari soliq obyeksi hisoblanadi:

- turarjoylar etagida va jamoat yerlarida shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer maydonlari;
- yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yerlar;
- jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari;
- xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chek yerlar;

- meros bo'yicha hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy, dala-hovli bilan birgalikda egalik qilish huquqiga ega bo'lgan yerlar;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;
- tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.



- *Yer solig'i to'lovchisi tasvirlangan rasmni ko'rsating.*
- *Qaysi rasmlarda yer solig'i obyektlari tasvirlangan?*



Amir Temur aholining o'zi yurgizayotgan iqtisodiy siyosatdan, hususan, moliyaviy munosabatlardan, pul muomalasi va soliq tizimidan xabardor bo'lishini, ya'ni, iqtisodiy savodxon bo'lishini talab qilardi. U aholi iqtisodiy savodxon bo'lsa, mamlakat iqtisodiy jihatdan ravnaq topadi, deb hisoblardi.

Sohibqiron soliqlar xususida yana quyidagilarni yozadi: "Agar aholi ro'yhatga olingan yerlardan beriladigan soliqni naqd aqcha(pul) bilan to'lashga rozi bo'lsa...", ularga imtiyoz berilishi kerak. Bu yerda gap soliqni naqd pul bilan to'lovchilar naqd pulsiz (mahsulot yo'li bilan) to'lovchilar oldida yengilliklar olishi ustida boradi.

*Manba: "Iqtisodiy ta'limollar tarixidan"*

Yer solig'i stavkalari har yili yangi yil uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer maydonlaridan soliq korxonalar, muassasalar va tashkilotlar belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

**Berilgan yerlardan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslardan yer solig'i uch baravar miqdorda undiriladi.**



1. Qanday yer uchastkalari yer solig'ini solish obyekti hisoblanadi?
2. Yer solig'i stavkalari kim tomonidan va qanday muddat uchun belgilanadi?
3. Qanday yer maydonlari uchun soliq oshirib to'lanadi?
4. Soliqqa tortiluvchi yer maydonlari qanday hujjatlar asosida aniqlanadi?
5. Qanday yer maydonlaridan soliq uch baravar miqdorda undiriladi?

## 5.2. Yer solig'ini to'lash va undan imtiyozlar

Yer solig'idan imtiyozlar ikki xil bo'ladi:

- jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan yer uchastkalari;
- yer solig'ini to'lashdan to'liq ozod qilingan jismoniy shaxslar.

Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi yerlar kiradi:

Yakka tartibda uy-joy qurish va shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlar doirasida berilgan yerlar – yer uchastkasi berilgan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga soliq solinmaydi. Agar yerdan o'z ornida foydalanilmasa, bu imtiyoz qo'llanilmaydi.



Ikrom aka o'z rafiqasi bilan hovlida yashaydi. Ularning 4 ta farzandi bor. Ikrom akaning otasi Nosir ota ham shu hovlida yashaydi. Nosir ota pensioner, u II-guruh nogironi. Ikrom otaning farzandlaridan Tohir 19 yoshda bo'lib, tadbirkorlik bilan shug'ullanadi. O'g'li Akmal 17 yoshda, u kollej talabasi. Qizi Olima 15 yoshda, o'g'li Shokir 13 yoshda bo'lib, maktabda o'qiydilar.

- *Ikrom aka oila a'zolaridan qaysilari soliq to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar?*
- *Ular qanday soliqlarni to'lashlari kerak deb o'ylaysiz?*
- *Ulardan qaysilari soliq to'lash bo'yicha imtiyozlarga ega bo'lishlari mumkin?*
- *Ikrom aka o'z hovlisi uchun yer solig'i to'laydimi? Nima sababli?*



1. Yer solig'i to'lovchilar uchun qanday imtiyozlar mavjud?
2. Kimlar yer solig'idan to'liq ozod etiladilar?
3. Yer solig'i qanday muddatlarda to'lanadi.
4. Yangi ajratilgan yer maydoni uchun qachondan boshlab yer solig'i to'lanadi?



Rasmlarga qarab:

1. Soliq to'lovchilarni;
2. Soliq to'lovchisi bo'la olmaydiganlarni;
3. Yer solig'i obyektlarini ajratib ko'rsating.





## YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I

### 6.1. Soliq obyeksi va to'lovlari

Mamlakatimiz soliq tizimida yer solig'i **mahalliy soliq va yig'implar** turiga mansub. Yer solig'i boshqa soliq turlaridan farqli o'laroq, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan ushbu soliq turi qat'iy to'lovdir. Ya'ni yer egalari va foydalanuvchilari o'z faoliyatlari davomida qanchalik foyda ko'rganlaridan qat'i nazar yer solig'ini to'lashlari shart. Chunki ushbu soliq amalga tatbiq etilishining asosiy maqsadi — yerdan oqilona foydalanish, uni avaylash, talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslikdir.

O'zining mulkida, egaligida va foydalanishida **yer maydonlari bo'lgan yuridik shaxslar yer solig'ining to'lovchilari** bo'lib hisoblanadilar.

Yagona soliq to'lashga o'tgan yoki soliqning alohida turlariga o'tgan korxonalar, savdo tashkilotlari yer solig'ini to'lovchilari bo'lmaydilar.

Yuridik shaxslar ajratib berilgan yerlar uchun yerdan foydalangan yoki foydalanmaganidan qat'i nazar yer solig'i to'laydilar.

Yuridik shaxslar uchun yer solig'i obyeksi bo'lib quyidagi yer maydonlari hisoblanadi:

- qonunda belgilangan tartib bo'yicha o'z mulki bo'lib olingan yer maydonlari;

- o'rmon xo'jaligi uchun egalik qilishga berilgan yerlar;
- korxonalar, imoratlar, inshootlar qurishga yoki boshqa no-qishloq xo'jalik maqsadlari uchun foydalanishga berilgan yerlar.



Yuqoridagi rasmlar asosida quyidagi savollarga javob bering:



1. Rasmlardagi yer maydonlaridan yuridik shaxslar uchun soliq solish obyekti bo'la oladiganlarini ajratib ko'rsating.
2. Siz ajratgan rasmlaringizni qaysi belgilariga qarab tanladingiz?
3. Ajratilgan rasmlar qanday shartlarda yuridik shaxslar uchun soliq solish obyekti bo'la olmasligi mumkin?
4. Rasmlardagi yerlarning qaysilaridan yuridik shaxslar ko'proq soliq to'laydilar deb o'ylaysiz? Nima sababdan?



Bobur iqtisodiy ta'limotida "xiroj", ya'ni yer solig'i masalasi alohida o'rin tutadi. U yer solig'ini ikki toifaga bo'ladi, ya'ni "muqassam" va "muvazzar". Birinchisi, olingan hosilning miqdoriga bog'liq bo'lgan; ikkinchisi, ekilayotgan yer maydoniga bog'liq qilib qo'yilgan. Sug'oriladigan yerlarga belgilanadigan soliq miqdori ham alohida hisoblangan. Suv solig'i hosilning 1/10 ning yarmi miqdorida tayinlangan.



Manba: "Iqtisodiy ta'limotlar tarixidan"



1. Qanday yuridik shaxslar yer solig'ining to'lovchilari bo'ladi?
2. Qanday yerlar yer solig'i obyekti bo'ladi?
3. Yer solig'ini boshqa soliq turlaridan ajratib turuvchi bitta xususiyatini ayting.
4. Yer solig'i nima uchun kerak? Javobingizni asoslang.
5. Yer solig'i qanday soliq va yig'imlar turiga mansub?
6. Qanday shaxslar yer solig'ini to'lovchilari bo'lmaydilar?
7. Qanday yerlar yuridik shaxslar uchun yer solig'i obyekti bo'lib hisoblanadi?
8. Bobur iqtisodiy ta'limotidagi yer solig'i masalasining o'rni haqida gapirib bering.

## 6.2. Yer solig'i stavkalari va imtiyozlari

Yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Yuridik shaxslar o'zlari egallagan va foydalanadigan yerlar uchun qishloq xo'jalik yerlaridan boshqacha stavkalar bo'yicha soliq to'laydi. Ushbu stavkalar har yili davlat soliq idoralari tomonidan o'zgartirilishi mumkin. Shahardagi yerlar uchun stavkalar zonalarga qarab belgilanadi. Masalan, Toshkent shahrida yer maydonlari 14 ta zonaga ajratilib, har bir zonaga alohida yer solig'i stavkasi belgilangan.

Yer maydonlarining joylashish joyiga bog'liq holda qishloq joylari uchun belgilangan yer solig'i stavkalariga quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi:

- Toshkent shahri atrofida 20 km lik aylanada — 1,30;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti va viloyat markazlari atrofida 15 km lik aylanada — 1,20;
- Tuman markazlari atrofida 10 km lik aylanada — 1,15;
- Boshqa shaharlar atrofida 5 km lik aylanada — 1,10.



1. Rasmlardagi yerlar qanday maqsadlarda foydalanilayotganligini ayting.
2. Bu yerlardan foydalanayotgan yuridik shaxslarning soliq to'lovlari bo'yicha qanday umumiylik va qanday farqlar bo'lishi mumkin deb o'ylaysiz?
3. Rasmdagi g'allazor Toshkent shahridan 18 km uzoqlikda, paxtazor esa Andijon shahridan 18 km uzoqlikda joylashgan bo'lsa, ular bo'yicha yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar bir-biridan qanday farq qilishi mumkin?

Dehqon xo'jaliklaridan undiriladigan yer solig'i stavkalari, yer sifatiga bog'liq holda belgilanadi.

Quyidagi yer maydonlari yer solig'idan ozod etiladi:

- shaharlar, shahar qo'rg'onlari, qishloq aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko'chalar, o'tish joylari, yo'llar, ariq yoqalari, ariqlar, mozorlar va boshqalar);
- bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik jamoalari uchun umumiy foydalanishga berilgan yerlar;
- tabiatni muhofazalashga mo'ljallangan yerlar;
- tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan yerlar;
- suv fondi yerlari (daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar dengizlar va shu kabi umumfoydalanadigan yerlar).

Yuridik shaxslarning esa quyidagilari yer solig'idan ozod qilinadilar:

- tijorat bilan shug'ullanmaydigan yuridik shaxslar;
- xayriya birlashmalari, uyushmalari va jamg'armalari, xalqaro tashkilotlar, diniy birlashmalar;
- madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari;
- dehqon xo'jaliklari — davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga;
- nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroniylar" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" uyushmasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar tashkil qilgan yuridik shaxslar.



1. Yuridik shaxslar uchun yer solig'i stavkalarini kim belgilaydi?
2. Shaharlardagi yerlar uchun soliq stavkasi qanday belgilanadi?
3. Qanday yerlar uchun soliq stavkasi qishloq xo'jalik yerlari uchun belgilangan stavkadan 2 marta ortiq qilib belgilangan?
4. Foydalanilgan ortiqcha yer maydonlari uchun yer solig'i qanday stavkada to'lanadi?
5. Qanday yerlar yer solig'idan ozod etiladi?
6. Qaysi yuridik shaxslar yer solig'ini to'laydi?

### 6.3.Yagona yer solig'i

Yagona yer solig'ini qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar to'laydi. Bunday korxonalar quyidagi soliq va yig'implarni to'lashdan ozod etiladi:

- daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

Yagona yer solig'ini amalga tatbiq etishdan asosiy maqsad qishloq xo'jalik yerlaridan unumli foydalanish, qishloq xo'jalik korxonalari uchun soliq tizimini soddalashtirishdir.

Soliq kodeksiga ko'ra, soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi yerlar kiradi:

- qishloq aholi punktlarining umumiy foydalanishidagi yerlari;
- to'siq vazifasini bajaradigan daraxtzorlar egallagan yerlar;
- sport inshootlari, stadionlar, suv havzalari va sanatoriy-kurort muassasalari egallagan yerlar;
- ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash obyektlari band etgan yerlar;
- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq soliq solinmaydigan boshqa yerlar.

Yagona yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod etiladi:

- yangi barpo etilgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, shu jumladan, fermer xo'jaliklari, davlat ro'y-xatiga olingan paytdan boshlab ikki yil muddatga;
- daromad (foyda) solig'i va yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan boshqa qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari.



Ta'lim obyektlari band etgan yerlar soliq solinmaydigan yer maydonlariga kiradi.



Amir Temur o'tkazgan iqtisodiy islohotlar tizimida dehqonlardan olinadigan tushumlarni tabaqalashtirish tamoyili ham alohida o'rin tutadi. U tushumlar miqdori yer va iqtisodiy sha-

roitlarga qarab belgilanishini talab qilgan. Masalan, yangi yer o'zlashtirilib, dehqonchilik qilayotgan kishilardan 1-2 yil soliq olmaslik, keyingi yillarda esa u sarflagan sarmoyasi qoplashini e'tiborga olib soliq solish, yerning tabiiy unumdorligiga qarab hosilning 1/4, 1/3, 1/2 kabi nisbatlarda tayinlanishi kabi tabaqalashtiruvchi soliqlar joriy etdi.

Manba: "Iqtisodiy ta'limotlar tarixidan"



- Rasmlardagi yerlarning qaysilari soliq solinmaydigan yer maydonlariga kiradi?
- Qaysilariga soliq solinadi?
- Bu soliqlarni kimlar to'laydi?



1. Yagona yer solig'i qanday soliq? Uni kim to'laydi?
2. Yagona yer solig'ini to'lovchilar qanday soliq va yig'implardan ozod bo'ladi?
3. Qanday yerlarga soliq solinmaydi?
4. Yagona yer solig'ini to'lashdan kimlar ozod etiladi?

## 6.4. Yagona yer solig'i stavkalari va uni hisoblash

Sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari bo'yicha bazaviy stavkalar sifatida tegishli tuman va shahar bo'yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Lalmi yerlar, pichanzorlar va yaylovlar bo'yicha bazaviy stavkalar sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Ijtimoiy imoratlar, suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo'llar band qilgan yerlar, shuningdek, qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar bo'yicha bazaviy stavkalar sifatida tegishli tuman va shaharlarning sug'oriladigan yerlari bo'yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Yerlarning har bir turi bo'yicha yagona yer solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\mathbf{YaYeSS = YeM \cdot BS \cdot TK,}$$

Bu yerda:

**YaYeSS** — yagona yer solig'i summasi,

**YeM** — yer uchastkasi maydoni, gektarda,

**BS** — soliqning bazaviy stavkasi, 1 gektar uchun so'mda,

**TK** — tuzatish koeffitsienti.

Qishloq xo'jaligi yerlari uchun yagona yer solig'ining bazaviy stavkalari sifatida quyidagilar qabul qilingan:

- sug'oriladigan yerlar bo'yicha — 1-toifa yerlari (bonitet balli 10 gacha);
- lalmikor yerlar bo'yicha — tekislik zonasi yerlari;
- pichanzorlar va o'tloqlar bo'yicha — "Cho'l" mintaqasi yerlari.

Yerlarning qayerda joylashgani va sifatiga (ball-bonitetga) bog'liq ravishda bazaviy stavkalar tegishli tuzatish koeffitsientlariga ega bo'ladi.

Yerning har bir turiga (sug'oriladigan yerlar, lalmikor yerlar, pichanzorlar, o'tloqlar) va hokazo tegishli bazaviy stavkalar va tuzatish koeffitsientlari qo'llanadi.






- Rasmdagi yertardan qaysilari yagona yer solig'i obyektiga bo'la oladi?
- Qaysi rasmdagi yerlar bo'yicha bazaviy stavkalar qanday belgilanadi?
- Qaysi rasmdagi yerlar yagona yer solig'i obyektiga bo'la olmaydi? Nima sababdan?



1. Yagona yer solig'iga qanday stavkalar belgilangan?
2. Sug'oriladigan qishloq yerlari uchun qaysi stavkalar bazaviy deb qabul qilinadi?
3. Yagona yer solig'i summasi qaysi formula orqali hisoblanadi?
4. Bazaviy stavkalar tushunchasini izohlab bering.



## YAGONA SOLIQ TO'LOVI

Mamlakatimizda kichik biznes subyektlari uchun soliq to'lovini ixchamlashtirish maqsadida yagona soliq to'lovi amalga kiritilgan. Ushbu soliq turini faqat **mikrofirma va kichik korxonalar** to'lash huquqiga ega.

Yagona soliq to'lovi quyidagi majburiy to'lovlarning o'rniga amal qiladi:

- yagona soliq;
- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga;
- Respublika yo'l jamg'armasiga;
- Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlar.

Yagona soliq to'lovi obykti – **yalpi tushum** hisoblanadi.

Yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiradi:

- mahsulot va xizmatlar sotuvidan olingan summa;
- asosiy faoliyatdan tashqari olingan daromad;
- moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar (masalan, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan);



*Iqtisodiyot barcha tarmoqlarining korxonalari soliqqa tortiladigan daromadning 8 foizi miqdorida yagona soliq to'lovini amalga oshiradilar.*

- favqulodda daromadlar (korxonalarining asosiy faoliyatiga aloqasi yo'q manbalardan olingan daromadlar).

Yuridik shaxslar yagona soliq to'lovini belgilangan soliq stavkalari asosida mustaqil ravishda hisoblaydilar.

### 358-moddasidan

Yagona soliq to'lovini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945- yildagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta'minot, sotish va tayyorlov faoliyati hamda lotereyalar tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno.

#### Soliq imtiyozlari samarasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007- yil 12 dekabrda-gi "O'zbekiston Respublikasining 2008- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori asosida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasining 2007- yil darajasida, 10 foiz miqdorida saqlab qolinishi mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq stavkasi 10 foizdan 8 foizga va banklar foyda solig'i stavkasining 17 foizdan 15 foizga pasaytirilishi yurtimizda tadbirkorlik faoliyati ko'lamining yanada kengayishi va gullab-yashnashiga, xizmat ko'rsatish, mahalliy ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishiga olib kelayapti.

*Manba: Soliq va bojxona xabarlari, N29, 25.07.2008 y.*

- "Soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish iqtisodiyotning erkinligi va barqarorligini ta'minlaydi". Ushbu fikrni yuqoridagi ma'lumot asosida izohlang.
- Davlatimiz tomonidan bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan soliq sohasini erkinlashtirish siyosatining mohiyati nimada deb o'ylaysiz?

1. Yagona soliq to'lovini kimlar to'laydi?
2. Qanday mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to'lovi to'lovchilari bo'ladi?
3. Yagona soliq to'lovi qanday majburiy to'lovlar o'rniga amal qiladi?
4. Yalpi tushum tarkibiga nimalar kirishini ayting?
5. Qanday yuridik shaxslar yagona soliq to'lovidan ozod etiladi?



## QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I

Mahsulot (xizmat) ishlab chiqarish, sotish yoki uni import qilish jarayonida mahsulot (xizmat) narxiga qo'shilgan qiymatning bir qismi davlatga to'lanadi. Ana o'sha to'lov – **qo'shilgan qiymat solig'i** deb ataladi. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari – O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar hamda mahsulotlar importi bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. O'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida chet eldan mahsulot olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno.

Qo'shilgan Qiymat Solig'ining obykti bo'lib mahsulotlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish (sotish) oboroti hamda import mahsulotlari oboroti hisoblanadi.

Mahsulotlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish oboroti deganda:

- mol-mulkka bo'lgan huquqni bepul berish yoki sotish;
- mahsulotlarni sotish yoki xizmat ko'rsatish;
- ustav fondi(kapitali)ga qo'shilgan hissa;
- mol-mulkni ijaraga (shu jumladan lizingga) berish kabilar tushiniladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi har qanday shaxs sotilgan (realizatsiya qilingan) mahsulot yoki xizmatlar uchun olinadigan to'lov mablag'i qachon kelib tushishidan qat'i nazar, budjetga qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashi shart bo'ladi.



### 201- moddasidan

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiritilgan tovarlar soliq solinadigan importdir. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar bundan mustasnodir.

Soliq qonunchiligiga ko'ra 2000- yildan mamlakatimizda Qo'shilgan Qiymat Solig'i stavkasi – 20 % va 0 % qilib belgilangan. Import qiluvchi mahsulotlarga ham Qo'shilgan Qiymat Solig'i 20 foizli stavka bo'yicha to'lanadi.

Belgilangan soliq stavkasi asosida realizatsiya qilingan QQS miqdori (summasi) quydagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$QQSS=STO \cdot SS/100$$

Bunda: QQSS – Qo'shilgan qiymat soliq summasi;  
STO – Soliqa tortiluvchi oborot; SS – Soliq stavkasi.



Quyidagi ma'lumotlar asosida QQS summasini aniqlang.

1. Xarid qilingan xomashyo va mahsulotlar summasi – 2300 ming so'm;
2. Sotilgan mahsulotlar summasi – 5600 ming so'm.

#### Yechilishi:

QQSS = STO x SS/100 formulaga ko'ra:

$5600 \times 0,2$  (ya'ni  $20/100 = 0,2$ ) = 1120 ming so'm.

Ammo to'lanishi lozim bo'lgan QQS summasini to'g'ri aniqlash uchun xarid qilingan xomashyo va mahsulotlar uchun to'langan QQSS ni hisoblashimiz va yuqoridagi summadan foydalanishimiz lozim ya'ni:  $2300 \text{ ming} \times 0,2 = 460 \text{ ming so'm}$ .

Demak:  $1120 - 460 = 660 \text{ ming so'm}$ .



1. Qo'shilgan qiymat solig'i qanday soliq?
2. Kimlar qo'shilgan qiymat solig'ining to'lovchilari bo'ladi?
3. Qo'shilgan qiymat solig'ining obyektini ayting?
4. Mahsulotlarni realizatsiya qilish oboroti deganda nimani tushunasiz?
5. Qo'shilgan qiymat solig'i qanday hisoblanadi?



## AKSIZ SOLIG'I

Qo'shilgan qiymat solig'idan farqli o'laroq, aksiz solig'i ayrim mahsulotlardangina olinadi. Xizmatlardan esa aksiz solig'i umuman olinmaydi. Aksiz solig'ining to'lovchilari – aksizosti (aksiz to'lanadigan) mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilardir.

Aksiz solig'i:

- alkogolli mahsulotlar;
- tamaki mahsulotlari;
- etil spirti;
- spirtli ichimliklar;
- oltin, kumush mahsulotlari;
- neft, gaz mahsulotlari (benzin, dizel, suyultirilgan gaz) kabi mahsulotlarga solinadi.

**O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan ayrim aksizli tovarlarga nisbatan aksiz solig'i stavkalari (2008- yil)**

№	Tovarlar	Soliq stavkasi	
		aksiz solig'i va QQSni hisobga olmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan foizlarda	bir o'lchov birligiga so'mlarda
1	Etil spirti (1 dekalitr uchun)		1 410

2	Konyak, aroq va boshqa alkagolli mahsulotlar (1 dekalitr tayyor mahsulot uchun)		11 300
3	O'simlik (paxta) yog'i (1 t uchun)		495 000
4	Sigaretalar (1 ming dona uchun): filtrlı		5 206
	filtrsiz		1 476
5	Zargarlik buyumlari	25	
6	"O'z DEUavto" AJ avtomobillari	29	
7	Ai-91, Ai-92, Ai-93 benzini (1 t uchun)		163 000

### Aksiz solig'i bo'yicha ayrim imtiyozlar

Soliq kodeksiga ko'ra quyidagilarga aksiz solig'i solinmaydi:

- eksport qilinadigan aksiz tovarlar, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi belgilaydigan ayrim tovarlar ro'yxati mustasno;
- "Salomas" va "O'zbekiston" yog'ini ishlab chiqarishda foydalaniladigan paxta yog'i;
- xalq ta'limi va sog'liqni saqlash tizimining ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan maxsus mebel.

Maxsus mebel deganda:

- davlat va nodavlat ta'lim va tibbiyot muassasalarini jihozlash uchun;
- ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini jihozlash uchun sotiladigan mebel tushuniladi.

1. Aksiz solig'i nima? U qanday mahsulotlardan olinadi?
2. Qanday mahsulotlar aksiz solig'idan ozod etiladi?
3. Aksiz solig'i stavkalaridan bir nechtasini aytib bering.



## YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni qidirish va aniqlash, foydali qazilmalarni kovlab olish va ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar Soliq Kodeksiga ko'ra yer qa'ridan foydalanuvchilar hisoblanadi.

O'zbekistonning yer qa'ri foydali qazilma turlariga juda boy. Mamlakatimizda 3000 ta foydali qazilma koni aniqlanganligi, shu bilan birga hududining faqat 20 % maydonidagina ekologik razvedka ishlari olib borilganini hisobga olsak O'zbekistonning yerosti boyliklari istiqboli naqadar ulkan ekanligiga amin bo'lamiz. Ana shunday boyliklarni asrab avaylab, oqilona foydalanishni ta'minlash maqsadida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq amalga tatbiq etilgan.

Soliq kodeksimizga ko'ra yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar yer qa'ridan foydalanuvchilardir.



Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq – soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblanadi.



Soliq Kodeksining 245- moddasiga binoan, kovlab (yoki ajratib) olingan tayyor mahsulotning o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi (qiymati) soliq solinadigan bazadir.

Soliq stavkalari esa, qazib olinadigan foydali qazilma va xomashyo turlariga qarab tabaqalashtirilgan tarzda belgilangan. Tabaqalashtirilgan stavkalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Quyida yerosti boyliklarining ayrim turlari bo'yicha 2008- yil uchun soliq stavkalari berilgan:

Soliq solinadigan obyekt nomi	Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
Tabiiy gaz	30,0
Neft	20,0
Ko'mir	3,8
Tozalangan mis	8,1
Oltin	5,0
Temir	3,9
Sement xomashyosi, marmar ushog'i	2,0
Gips toshi, ganch	3,8
Qurilish qumlari	3,0

Tabiiy noqulay sharoitda ishlovchi konlar davlat tomonidan qo'shimcha ravishda qo'llab-quvvatlanadi. Ularga nisbatan pasaytirilgan soliq stavkalari joriy etiladi.



1. Yer qa'ridan foydalanadiganlar kimlar?
2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning zarurligi nimada?
3. Ushbu soliqni to'lovchilar kimlar?
4. Soliq solinadigan baza deganda nimani tushunasiz?
5. Qanday korxonalar soliqdan imtiyozga ega? Qandaylari soliqdan ozod etiladi?



## IJTIMOYIY JAMG'ARMALARGA MAJBURIY TO'LOVLAR

### 11.1. Yagona ijtimoiy to'lov va pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar

Oldinlari amalda bo'lgan turli ajratmalar va sug'urta badallari o'rniga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 25-dekabrda 567-sonli qaroriga asosan yagona ijtimoiy to'lov amaliyotga tatbiq etildi.

Ijtimoiy jamg'armalarning maqsad va vazifalari qarilik pensiyalari, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari, homiladorlik va tug'ish nafaqalari, bola tug'ilganida beriladigan nafaqalar, dafn marosimi nafaqalari, 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalarning ota-onalariga qo'shimcha dam olish kuni uchun haq to'lash, berilayotgan imtiyozlar o'rniga kompensatsiya tariqasidagi pul to'lovlari mablag'larini moliyalashtirish va ushbu maqsadlar uchun zarur moliyaviy mablag'larni to'plashdan iboratdir.

Shuning uchun ham bu jamg'armalarga to'lovlarni amalga oshirish har bir yuridik va jismoniy shaxs uchun eng muhim savobli ishlardandir.

Soliq kodeksining 305- moddasiga muvofiq yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar quydagilardir:

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar;

- O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar;
- O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi va ishlovchi fuqaroligi bo'lmagan jismoniy shaxslar.

Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek ularni to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarining soliq solish obyekti – mehnat shartnomasi yoki boshqa hujjatlariga muvofiq olinadigan ish haqi tarzidagi daromadlardir. Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza ish haqi tarzidagi daromadlar summasidan iborat.

2008- yilda yagona ijtimoiy to'lov stavkasi quyidagicha belgilangan:

Soliq solinadigan baza	Ajratmalar miqdori, foizda
Mehnatga haq to'lash fondi	24

Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lansa, sug'urta badallari xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi.

Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni notijorat tashkilotlar hamda yagona soliq to'lovini to'lovchi yuridik shaxslardan boshqa yuridik shaxslar to'laydilar. Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi korxonalar oborotining sof tushumidir.

Boshqa soliq turlarida bo'lgani kabi yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari bo'yicha ham imtiyozlar ko'zda tutilgan.



1. Yagona ijtimoiy to'lov nima? Uni kimlar to'laydilar?
2. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari qaysi manbalardan to'lanadi?
3. Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish uchun kim mas'ul bo'ladi?
4. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarining soliq solish obyekti va bazasi nima?
5. Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar qaysi manbalardan to'lanadi?

Rasmlar asosida savollarga javob bering:



1. Rasmlardagi shaxslarning qaysilari ijtimoiy jamg'armalar mablag'laridan foydalanuvchilar bo'la oladi?
2. Qanday hollarda 5- va 6-rasmlardagi shaxslar ijtimoiy jamg'armalariga to'lovchilardan ushbu jamg'armalar mablag'lari iste'molchilariga aylanishlari mumkin? Javobingizni asoslang.

## 11.2. Respublika yo'l jamg'armasi

Respublika yo'l jamg'armasining tashkil qilinishi va faoliyat ko'rsatishidan asosiy maqsad mamlakatimiz yo'l xo'jaligini rivojlantirish, yo'llarimizning holatini yaxshilash va yangi yo'llar qurilishini moliyalashtirishdan iboratdir. Mamlakatimizda transport vositalari sonining keskin ko'payishi va yo'llarning texnik holatiga bo'lgan zamonaviy talablarning ortishi natijasida bu yo'nalishda ancha katta miqdordagi mablag'lar sarflanishini taqozo qilmoqda.

Respublika yo'l jamg'armasi budjetini – Respublika yo'l jamg'armasi majburiy ajratmalar va Respublika yo'l jamg'armasi yig'implari tashkil etadi.

Soliq kodeksi 316- moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritadigan (rezident) yuridik shaxslar Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchilardir.

Xuddi o'sha 316- moddaga ko'ra quyidagilar majburiy ajratmalarlarning to'lovchilari bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar;
- yagona soliq to'lovi to'lovchi yuridik shaxslar;
- ixtisoslashgan yo'l xo'jaligi tuzilmasiga kiruvchi korxonalar.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchi yuridik shaxslarning oborotidan sof tushumi soliq solish obyekti va soliq solish bazasi bo'ladi. Majburiy ajratmalar miqdori (summasi) soliq solinadigan baza va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblanadi.



1. Respublika yo'l jamg'armasi qachon tashkil etilgan? Uni qanday maqsadlarni ko'zlab tashkil etganlar?
2. Respublika yo'l jamg'armasiga ajratmalar to'lovchilar kimlar?
3. Ushbu soliq turining soliq solish obyekti va soliq solish bazasi nima?

### 11.3. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi



Budjetdan tashqari Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 21 maydagi Farmoniga muvofiq, maktab ta'limini 2004 – 2009- yillar davomida rivojlantirish maqsadida tashkil etildi.

Bu jamg'armalar budjetdan tashqari jamg'armalar bo'lishiga qaramay ularga to'lovlar davlat soliqlari va yig'imlariga tenglashtirilgan va maktab ta'limini rivojlantirish 2004 – 2009- yillar Davlat umum-milliy dasturiga kiritilgan.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi barcha yuridik shaxslar mulkchilik shaklidan qat'i nazar Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armalariga majburiy ajratmalar to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Bu jamg'armalarga majburiy to'lov stavkasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Majburiy ajratmalarining to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazorat davlat soliq xizmatining organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.



1. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi qachon va nima maqsadda tashkil topgan?
2. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalarining to'lovchilari kimlar?
3. Stavkalar qanday tartibda belgilanadi?
4. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga tushumlar tushishini nazorat qilish qaysi organ zimmasiga yuklatilgan?

**Takrorlash krossvordi.** Agar siz krossvorddagi bo'yiga yozilgan so'zlarning yetmagan harflarini to'g'ri topib yozsangiz, bo'sh kataklarda biz 8- va 9-sinflar davomida soliq bo'yicha o'rganganlarimizni o'z ichiga qamrab olgan umumiy atama hosil bo'ladi.



**ERGASHVOY SARIQOV, BAHODIR HAYDAROV,  
SHERZODBEK SARIQOV, KOMILJON ALLAMJONOV**

## **SOLIQQA TORTISH ASOSLARI**

*Umumta'lim maktablarining  
9-sinfi uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent — “Yangiyul poligraph service” — 2008

*Muharrir — R. Qo'chqorov*

*Texnik muharrir — A. Kaybisheva*

*Musahhih — B. Azimov*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 14.10.08. Bichimi 60x90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
«Arial» garniturasida. Ofset bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 3,0.  
Nusxasi 100000. Buyurtma N 68.

“Yangiyul poligraph service” MCHJ bosmaxonasida bosildi.  
Yangiyo'l sh., Samarqand ko'chasi, 44.